



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 29-fevral, payshanba,  
26 (23.903)-son

**KUN  
HIKMATI**

Yetti o'lchab  
bir kesishni  
ham yetti bor  
o'ylagan  
ma'qul

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining QARORI

## Issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan Samarqand shahri va Nurobod tumanidagi yuridik tashkilotlarga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdorini ma'qullash to'g'risida

"2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrda "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 475-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-yanvardagi (03/1-3480-sonli) topshirig'i, viloyat hokimi o'rinbosari (A.Shukurov)ning 2024-yil 23-yanvardagi (44/01-30-sonli) bildirigisi, viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi "Issiqlik manbai" DUKning 2024-yil 16-yanvardagi (20-sonli) murojaati, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 20-yanvardagi (01/05-38/40-sonli) va Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasining 2024-yil 23-yanvardagi (H-08-283-01/04-sonli) xulosalariga asoslanib, Samarqand shahri va Nurobod tumani hududidagi issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini oshirish hamda korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq to'qson oltinchi sessiyasi **QAROR QILADI:**

1. Samarqand shahri va Nurobod tumanida issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan yuridik tashkilotlarga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdori ilovaga muvofiq ma'qullansin.  
2. Viloyat hokimining o'rinbosari (A.Shukurov) Samarqand shahri va Nurobod tumanida issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan yuridik tashkilotlarga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdorini tasdiqlash to'g'risida viloyat hokimining qaror loyihasini o'rnatilgan tartibda ishlab chiqsin.  
3. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (L.Xamidov), "Issiqlik manbai" DUK (N.Gazibekov), Samarqand shahar hokimligi (F.Umarov), Nurobod tumani hokimligi (S.Berdiqulov) bilan birgalikda yuridik tashkilotlarni kuz-qish mavsumida uzluksiz issiqlik ta'minoti bilan ta'minlash bo'yicha zaruriy choralar ko'rsin.

4. Viloyat hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi (M.Mirzayev), "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" davlat unitar korxonasi (N.Norbekov) ushbu qarorni Lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasida rasman e'lon qilinishini va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.  
5. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.  
6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (O'.Saidmurodov) hamda viloyat hokimi o'rinbosarlari (F.Abilov, A.Shukurov) zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **S.USMONOV**  
2024-yil 23-fevral VI-96-16-7-0-K/24

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 23-fevraldagi VI-96-16-7-0-K/24-son qaroriga **ILOVA**

### Samarqand viloyatining shahar va tumanlarida issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan yuridik tashkilotlarga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) MIQDORI

| Xizmatlar turi                              | Tip, marka, artikuli yoki model raqami | O'lchov birligi | Tarif miqdori (so'm) |
|---|--|-----------------|----------------------|
| <b>Samarqand shahri bo'yicha</b>            |  |                 |                      |
| Yuridik tashkilotlari uchun tarif (QQS siz) | KMK 2.04.02-97                         | Gkal            | 506 331              |
| <b>Nurobod tumani bo'yicha</b>              |  |                 |                      |
| Yuridik tashkilotlari uchun tarif (QQS siz) | KMK 2.04.02-97                         | Gkal            | 655 697              |

## Dari – zanjir madaniy merosi asrab qolinadimi?

**YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Samarqand tarixiy markazi 1123 gektar va uning muhofaza zonasi 1369 gektarni tashkil etadi. Viloyatda 1607 ta moddiy madaniy meros obyekti ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 483 tasi, ya'ni 30 foizi Samarqand shahrida joylashgan.**



Viloyat madaniy meros boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, Samarqandda 130 ta madaniy meros obyekti yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi. Ular

orasida Samarqand shahridagi Dari-zanjir madaniy meros obyekti ham bor. Dari (eshik) – zanjir (zanjirlangan), ya'ni zanjirlangan eshik ma'nosini bildiradi.

Dari-zanjir Samarqand shahridagi qadimiy mahallalardan biri bo'lib, shimoldan Mahdumi Xorazmiy, sharqdan Faqih Abulays, janubdan Yalangbek va g'arbdan Qozi G'ofur mahallalari bilan chegaradosh bo'lgan va aksariyat aholisi Zomin tumanining Kultepa qishlog'idan ko'chib kelgan. Abu Tohir xoja Samarqandiyning "Samarriya" asarida yozilishicha, "Darvish Xolid mozori Dari-zanjir mahallasidadir. U Husayn Xorazmiyning xalifalaridan bo'lib, suluki jahriya ekan. Dari-zanjir Amir Temur ko'ragon xotini raboti bo'lib, Chokardizaning g'arb tomonida va musulmonlarning qabristoniga tutashgan", deb qayd qilingan. XVI-XVII asrlarda mahalla Hayoti Xon (xonning hovlisi) nomi bilan ham yuritilgan. XVIII asrda hududda madrasa, maktab, savdo do'konlari faoliyat ko'rsatgan.

Ota-bobolarimiz Dari-zanjir madaniy merosi XI asrda dastlab qal'a bo'lgani, XIV asr oxirlarida Samarqandning sharqiy-janubiy qismida mahallaga aylantirilgani haqida ko'p aytardi, - deydi Dari-zanjir mahallasida yashovchi Jo'raxon Mallaxo'jayev. - Bu yerda Amir Temur va temuriylarning yaqin qarindoshlari, keyinchalik din peshvolarining oilalari yashagan. Ular ayollarini nomahramlardan himoya qilib, hujra eshiklarini zanjirlab qo'ygan va bego-

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yilning 20-fevral kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida joylarda vasiylik va homiylik masalalari, ota-ona qaromog'idan mahrum bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha qaror topshiriqlar berilgan edi.**



## Bola nega huquqbuzarlik qildi?

Viloyat hokimligida ushbu topshiriqlar ijrosi hamda mazkur yo'nalishlarda viloyatda olib borilayotgan ishlar tahlil qilindi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov rahbarligida o'tkazilgan tanqidiy, tahliliy muhokamada ichki ishlar organlari ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda 619 nafar voyaga yetmaganlar, jumladan, 69 nafar qizlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilganligi ta'kidlandi.

Huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlarning 80 nafari Samarqand shahri, 113 nafari Urgut, 82 nafari Past Darg'om va 63 nafari Ishtixon tumanlari hisobiga to'g'ri kelayotganligi mazkur hududlarda ushbu yo'nalishda belgilangan vazifalar ijrosi yetarli darajada olib borilmayotganidan dalolat beradi. Buning uchun mas'ullardan izoh so'raldi.

Hududlarda voyaga yetmaganlarning ma'naviy,

axloqiy, huquqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasida ishtirok etish, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga ko'maklashish, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga yordam berishga barcha birdek mas'ul bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Muhokama yakunida mutasaddilarga voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarorsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish yuzasidan topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

Amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar bir oydan so'ng yana tanqidiy ruhda tahlil etilishi belgilandi.

**Viloyat hokimligi axborot xizmati.**

## Yangi rahbarga maktab ta'limidagi islohotlarni vijdonan bajarish topshirildi

**Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasida soha mas'ullari hamda oliy ta'lim muassasalari rektorlari bilan uchrashuv o'tkazdi.**

Dastlab shu paytgacha viloyat madaniyat boshqarmasiga rahbarlik qilgan Shahzod Eshonqulov viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i etib tayinlangani e'lon qilindi.

Viloyat hokimi maktab ta'limi haqida gapirib, o'quvchilarning darslarga qatnashmasligi, davomating pastligiga maktab direktori va o'qituvchilar aybdor emasligi, ular davomatni ro'y-rost ko'rsatishi kerakligini bildirdi. Tegishli ishchi guruh tomonidan viloyatdagi yigirmata maktabda o'quvchilar davomati o'rganilib, tahlil qilinganda, darslarga 76 foiz o'quvchi qatnashgani ma'lum bo'ldi. Ammo mas'ullar tomonidan emaktab.uz platformasiga 95 foizdan ortiq o'quvchi darsda deb kiritilgan. Yuqori sinf o'quvchilarining davomati tahlil etilganida, Kattaqo'rg'on

shahridagi 9-maktab, Kattaqo'rg'on tumanidagi 11-maktab, Nurobod tumanidagi 67-maktabda 59-65 foiz o'quvchilar darslarda qatnashgani kuzatilgan. Boshqa maktablarda ham shunday holat kuzatilayotgani, o'quvchilar maktabdagi darslarni tashlab, repetitora borayotgani muhokama etildi. Tadbirida ishtirok etgan maktabgacha va maktab ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari Usmon Sharifxo'jayev bu muammo tez orada hal etilishini ta'kidladi.

Shuningdek, tadbirida chet tillarni o'qitish masalasi ham ko'rib chiqildi. Hukumat qaroriga ko'ra, davlat ta'lim muassasalarining chet tili o'qituvchilariga nomzodlar kamida V2 darajasidagi milliy sertifikat yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatga ega bo'lishi kerak. Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan 5754 nafar chet



tili o'qituvchisining atigi 3310 nafari shunday sertifikatga ega.

- O'qituvchining o'zi xorijiy tili puxta bilmasa, o'quvchilarga qanday qilib chet tilini o'rgatadi, - dedi viloyat hokimi.

Tahliliy, tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda maktab direktorlarining muammolari ham tinglandi. Ular tomonidan keltirilgan masalalar tez orada hal etilishi bildirildi.



nalarning kirishi taqiqlangan. XIV asr oxiri XV asr boshlarida Dari-zanjir hujrasi yaqinida katta masjid ham bo'lgan. Masjidga keluvchilar hujradan darsxonaga sifatida ham foydalangan. Jumladan, Alisher Navoiy ham Samarqandda yashagan yillari bu yerga kelib turgan.

2009-2016-yillarda ushbu mahallaga raislik qilganman. O'sha yillarda hashar qilib yoki tadbirkorlar homiyligida obyektni ta'mirlash bo'yicha taklif bergandim. Ammo mas'ullar madaniy merosga ziyon yetishini aytdi va 2014-yilda obyekt ta'mirlanishi, mablag' ajratilishi ma'lum qilindi. Ammo hozirgacha hech qanday amaliy ish qilinmadi. Ayni paytda maj-

mua xaroba holatda turibdi.

Dari-zanjir madaniy merosi mahalla binosi ro'parasida joylashgan bo'lib, to'rt hujradan iborat. Hozirda obyekt devorlari abgor holatga kelib qolgan va bitta hujra nurab tushgan. Qolgan uchta hujradan mahalla aholisi omborxonaga sifatida foydalanib kelmoqda. Agar majmua tez fursatda himoyaga olinmasa, qolgan qismi ham yo'q bo'lib ketishi mumkin.

- Majmua Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan va mahalliy ahamiyatdagi moddiy madaniy meros obyekti hisoblanadi, - deydi viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Ziyodulla Nasimov. - Obyektning umumiy maydoni 70,13 kvadrat metrni tashkil etadi va uzoq yillardan buyon ta'mirga muhtoj. Shu bois madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti va Madaniy meros obyektlari restavratsiyasi direksiyasi bilan hamkorlikda Dari-zanjir majmuasining loyiha-smetalarni ishlab chiqib, joriy yil obyektida ta'mirlash, tiklash va konservatsiya ishlarini olib borish rejalashtirilgan.

Aytilish joizki, bundan oldingi yillarda ham ushbu majmuaning ta'mirlash va konservatsiya qilish maqsadida bir necha marta dasturga kiritilgan. Afsuski, bu ishlar qog'ozda qolib ketyapti. Biz viloyatda yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan 130 ta madaniy meros obyektidan bittasi haqida to'xtaldik, xolos.

**Fazliddin RO'ZIBOYEV,**  
"Zarafshon" muxbiri.



# Deputatlar kuchayadi(mi?!)

↓ Mulohaza

**Joriy yilning 2-fevral kuni davlat rahbari “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” farmonni imzoladi. Odatga xilof o'laroq, hujjatga sharh ham berildi. Aksar hollarda butun mamlakat bo'yicha bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatlarga ko'pam sharh berilavermaydi.**

## XALQ VAKILLARI HUQUQI KENGAYDIMI?

Maqola avvalida qayd qilingan farmon haqida eshitganlar borki, shu gap xayolidan o'tiyapti. Avvalo, fikrlab ko'ring, avval huquqlari kammidi?

Bizningcha, yo'q, shu paytgacha ham deputatlarda yetarli-ha huquq bo'lgan. Misol uchun, davlat boshqaruvi organlari rahbari ularni navbatsiz va moneliksiz qabul qilishi shart.

Ular tergov ishi va davlat siri bo'lmagan istalgan axborotni so'rab olish huquqiga ega. Bunday huquq oddiy fuqaroda ham bor-ku, deyingiz mumkin. Farqli tomoni shundaki, sizga 15 kunda, vakillik organi a'zolariga 10 kundan kechiktirmay javob qaytarilishi kerak. Qo'shimcha o'rganishlar talab qilinsa, fuqaro umumiylariga 1 oy ham kuttirilishi mumkin.

Savol tug'ilishi mumkin, mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilgani yangilik emasmi? Aslo, bu masala, ya'ni hokimiyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyil yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan.

## YANGI GAP YO'QMI?

Avvalo, qayd etish lozim, farmon bilan muayyan sohalarini isloh qilish, davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsad qilinayapti. Ya'ni, davlat rahbari imzolangan hujjat bilan hokim yoki Kengash vakollari, huquq yoki majburiyatlari belgilab berilayotgani yo'q. Shu masala bo'yicha tegishli mas'ul idoralarga topshiriqlar berilgan.

Misol uchun, 33 ta vakolatni mahalliy Kengashlarga o'tkazilishi taklif etilyapti. Buni Oliy Majlis Senati, Adliya vazirligi hamda mahalliy Kengashlar ishlab chiqqan.

Taklif ma'qullandi-ku, deyishga shoshilmang. Endi Kengashlar yangicha ishlashi mumkin bo'lganida Adliya vazirligiga manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda farmonning 1-ilovasidagi takliflarni ro'yobga chiqarish uchun

tegishli qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish to'g'risida hukumatga kiritish vazifasi berilmasdi.

## O'ZGARISHLAR QANDAY BO'LADI?

Albatta, Kengashning mustaqil faoliyat yuritishi, uning ishiga aralashmaslik birdaniga amalga oshadigan jarayon emas. Joriy yil oktabr oyida o'tkaziladigan saylovda shakllanadigan viloyat Kengashi alohida binoda faoliyat olib boradi. Kutilayotgan asosiy yangilik - shu.

Farmonda Oliy Majlis Senatiga mahalliy Kengashlar deputatlarining maqomi va faoliyatining asosiy kafolatlarini yanada kuchaytirish choralarini ko'rish vazifasi topshirildi. Umuman, endi yuqori vakillik organi hududlardagi vakillik organlari bilan hamnafas ishlashi kerak. Shu ma'noda mahalliy Kengashlar tomonidan hudud manfaatlariga oid muhim va dolzarb masalalar yuzasidan Oliy Majlis Senatiga takliflar kiritish mexanizmini belgilash nazarda tutilyapti.

Umuman, mahalliy Kengashlar, ularning organlari hamda deputatlarining nazorat faoliyati takomillashtirilib, samarali nazorat tizimi shakllantiriladi.

Deputatlar viloyat Kengashi bu borada faqat mansabdor shaxslarning hisbotlarini tinglash bilangina kifoyalanib kelayotgan edi.

Bundan tashqari, mahalliy Kengashlar qarorlarini ishlab chiqishda ham jamoatchilik ishtiroki ta'minlanadi.

## ALOHIDA BO'LIB NIMA YUTADI?

Deputatlarni ko'pdan qiynab kelayotgan muammo — mahalliy budjet mablag'laridan oqilona foydalanish masalasi, desak bo'lmas. Mantiqan qaralganda (qonun bo'yicha ham), budjet tasdiqlanishi-yu ijrosi nazoratiga Kengashlar haqli. Ammo bu jarayonda xalqimiz, ya'ni saylovchilar xohish-istaklari qay darajada inobatga olinayapti, degan savol tug'iladi.

Aytmoqchi bo'lganimiz, Kengash alohida organ sifatida faoliyat boshlashi bunga imkon yaratadi.

To'g'ri, yangi tartibda, katta kuch va mehnat talab qiladi. Ammo bunga erisha olsak, oldimizga qo'yg'an muhim vazifalardan biri uddalangan bo'ladi. Shu bois Oliy Majlisga Adliya vazirligi bilan birgalikda mahalliy Kengashlar deputatlari va kotibiyatlari xodimlarining bilim va malakasini oshirishga qaratilgan o'quv kurslarini tizimli tashkil etish tavsiya etildi.

Y.MARQAYEV.



# BEPUL DORI VOSITASI HAQIDA JAMOATCHILIKKA XABAR BERILMOQDA

**Uzoq o'tmish emas, shu yaqin o'rtada shifoxonaga ishi tushib borganlar ham biladiki, aksariyat hollarda bemor yoki uning yaqinlariga dorilar ro'yxati yozib beriladi. Beixtiyor xayolingizdan o'tadi - davolanish bepul bo'lgan davlat shifoxonalarda nahotki biror bir dori vositasi bo'lmasa? Bor yoki yo'qligi sizga qorong'u.**

Shu sababdan bundan sal oldinroq viloyat hokimligida o'tkazilgan yig'ilishda sohadagi vaziyat keskin tanqid qilindi. Ayrim oilaviy poliklinikalarda 120 turdagi dori vositalari bo'lsa-da, fuqarolarga bepul dori-darmon bermaslik holatlari qayd etilgani, ayrim shifoxonalarda esa bemorlar MRT, kompyuter tomografiyasi, laboratoriya tekshiruvlari uchun xususiy sektorga yuborilgani, holbuki, bu turdagi xizmatlar va jihozlar davlat muassasalarida ham bor ekanini aytiladi. Har bir tumandagi vaziyatni o'rganish uchun ishchi guruhi tuzilgani ta'kidlandi.

Ishkhan tumanida tibbiy xizmat sifatini o'rganish uchun borganimizda birinchi navbatda yuqorida yangilik e'tiborimizni tortdi. Tibbiyot birlashmasi oilaviy shifokorlik punktlari bo'yicha koordinatori Bahodir Abdurazzoqovning ma'lum qilishicha, Ishkhande teleqram ijtimoiy tarmog'ida tibbiyot bo'yicha jamoatchilik nazorati guruhi tashkil etilgan bo'lib, tumanga berilgan har qanday dori vositasi va tibbiyot uskunasini haqida shu guruhda xabar qoldiriladi. Dori vositalari qaysi bo'limlarga, qancha berilgani, kimlar uchunligi ham ma'lum qilindi. Mazkur guruhga barcha mahalla fuqarolar yig'inlari oqsoqollari, faollar, umuman, kim istasa, a'zo bo'lib kuzatib bormoqda.

Shu guruhni tashkil etganimizdan so'ng qaysi hududlarga dori vositalari yetib borsa, ertasi kuni mahalla faollari o'sha QVPga kirib, dorilarni sanab chiqishiga ham guvoh bo'ldik, - deydi B.Abdurazzoqov. - Bundan ranjiganimiz yo'q, modomiki ishonchsizlik bormi, demak, bunga tibbiyot xodimlari yo'li qo'yan, o'z vaqtida bor dorilar ham berilmagan. Endi esa hech kim bunday qila olmaydi. Chunki aholi guruhda ko'rib turadi, qaysi dori bor yoki yo'q ekanini.

Tibbiyot jamoatchilik nazorati guruhi-ga o'zimiz ham a'zo bo'ldik. Ko'rdik, dori-darmon boshqa masalalar ham muhokama qilinyapti. Masalan, hududlardan birida yashovchi fuqaro o'z savolini qoldiryapti: "Nima uchun QVPda shifokor o'z joyida emas?" va ham o'tmay bu savolga ham tuman TTB xodimlari tomonidan munosabat bildirilmoqda.

E'tiborimizni tortgan ikkinchi masala tuman tibbiyot birlashmasi dori omborxonasida bo'ldi. Gap shundaki, davlat tomonidan berilgan har qanday dori vositasiga shunday muhr qo'yiladi: "Sotish taqiqlanadi!"

Tuman tibbiyot birlashmasi rahbari Aziz Xudoyberdiyevga ko'ra, birlashma uchun beriladigan dori vositalari qabul qilingan zahoti shunday muhr qo'yilishidan maqsad bu dorilarning qing'ir yo'li bilan sotuvga chiqib ketishining oldini olish. Bunday muhriga ega dori vositasi chiqib ketgan taqdirda ham uni dorixonalar qabul qila olmaydi va shu yo'li bilan dorilar masalasida uchrashi mumkin bo'lgan qing'irlikning oldi olinadi.

Albatta, tizimda barcha bo'limda har qanday dori vositalari to'liq birlashma tomonidan qoplanayapti deya olmayman, - deydi Aziz Xudoyberdiyev. - Tan olish kerak, hozir ham o'zimizda bo'lmagan ayrim dorilar yozib berilyapti. Ammo bizda mavjud dorilarning faqat bemorlarga tekin berilishiga kafolat bera olamiz.

Bo'limlarda bemorlar va ularning yaqinlari bilan suhbatlashdik. Dori ta'minoti bo'yicha har kimning fikri turlicha. Masalan, kimdir 90 foiz dorilar davlat tomonidan berilayotganini aytsa, yana kimdir dorilarning teng yarmini dorixonadan olib kelayotganini bildirdi. Bilishimizcha,

bu bo'lim, kasallik va davolash turi dori vositalari, zaruratidan kelib chiqib kuzatilmog'da.

E'tiborimizni tortgan navbatdagi holat tuman tibbiyot birlashmasida 20 dan ziyod dorixonalar bor ekan. Bu dorixonalar o'z o'zidan paydo bo'lib qolmagan albatta. Talabga qarab shakllangan. Yaqingacha bemorlarga varaq-varaq dorilar ro'yxati



yoziq berilgan.

Viloyat va respublika rahbariyati tomonidan o'tkazilgan yig'ilishlarda dorilar yozib berish masalasi juda qattiq tanqid qilingandan so'ng barcha tumanda, jumladan, bizda ham bu narsa nazoratga olingan, - deydi shifokorlardan biri. - Birinchi navbatda, turli firmalarning dorilaridan butunlay voz kechildi. Ikkinchidan, faqatgina vazirlikning tegishli xatida ko'rsatilgan tartibda eng muhim va shifoxonada bo'lgan dorilar retsept qog'ozda muhr bilan yozib berilmog'da va har bir dori uchun shifokor javobgarlikni o'z zimmasiga olmog'da.

Qiziq holat, kun davomida shifoxonaning barcha bo'limlarida shifokor va bemorlar bilan atroflicha suhbat uyush-tirdik, jarayonni tasvirladi. Bunga tabiiyki, hech qanday to'squinlik bo'lmas, aksincha, nima ma'lumot kerak bo'lsa, taqdim etilmog'da, kamchiliklar tan olinib, qanday yechim izlanayotgani aytilmog'da. Ammo atroflicha dorixonalarni tasvirla olar ekanimiz, ayrim dorixonaga egalarning tashvishiga tushgani va asabiylashgani bizni hayron qoldirdi. Aftidan, dori "biznesi"ga chek qo'yish borasida so'nggi haftalardagi qat'iyat va chora-tadbirlar hammaga ham yoqmayapti.

Ha aytganday, barcha bo'limlarda davlat tomonidan berilishi lozim bo'lgan dorilar ro'yxati yozib qo'yilgan. Bu yaxshi, albatta. Shuningdek, bosh vrach bilan to'g'ri ridan - to'g'ri bog'lanish uchun tashkil etilgan telefonlarga ham ko'zimiz tushdi, ammo ularning hammasi ham ishlamasa ekan...

Tibbiyot birlashmasi hududida xususiy shifoxona borligi yana bir fikrni ilgari surishga turtki berdi. Chunki tuman tibbiyot birlashmasi hududida xususiy shifoxona bo'lishi bu faqat Ishkhande emas, boshqa tumanlarda ham kuzatiladigan holat. Xo'p, buning nimasi yomon deyingiz mumkin. Birinchidan, agar tuman markaziy shifoxonasida barcha zarur mutaxassislar va tibbiyot uskunalari bo'lsa, aynan shu hududda xususiy shifoxonaga ehtiyoj bo'lmaydi. Xo'p, ehtiyoj bor ham deylik. Ammo bu yana bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol sifatida o'zimiz guvoh bo'lgan bir voqeani keltiramiz. Bir necha yil oldin davlat shifoxonasida bo'lib, kerakli mutaxassisni ancha kutishga to'g'ri kelgan. Bilsak, shifokorning shu atroflicha xususiy shifoxona bilan ham shartnomasi bo'lib, doimo bir oyog'i o'sha yerda bo'larkan. Bu esa ko'pincha bemorlar uchun noqulaylik keltirib chiqaradi. Hozir ham bunday holatlar mavjud va fikrimizcha, bu masala ham bir o'rganib ko'rilishi kerak.

**Anvar MUSTAFOQULOV, Fazliddin RO'ZIBOYEV, "Zarafshon" muxbirlari.**

# Olish ham, qaytarish ham muammo

**Bank tizimi respublikamizda jadallik bilan rivojlanayotgan sohalar qatoriga kiradi. Hozirda iqtisodiyotning qon tomiri sifatida qaraladigan ushbu yo'nalishning barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun hukumat tomonidan barcha zaruriy choralar ko'rilib, banklarning likvidlilik darajasini yanada oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilmog'da. Ammo tez sur'atlarda o'sish va kredit qo'yilmalarining ortib borishi aktivlar sifati, jumladan, muammoli kreditlar salmog'ining oshishi xatarini yuzaga keltirib, bunday kreditlar bilan ishlash usullarini takomillashtirish masalasini dolzarb darajaga chiqarmoqda.**

Davlatimiz rahbari iqtisodiyot sektori mas'ullari bilan uchrashuvda "Kreditlar stavkalarini 2-3 foizgacha pastlatish hamda muammoli kreditlarni undirish borasida yangicha tizim joriy etiladi. Kredit o'z vaqtida qaytmagan taqdirda (kredit olganda ham, berganda ham) javobgarlik masalasi qo'yiladi", deb ta'kidlandi. Darhaqiqat, iqtisodiyotda real sektor korxonalar va aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror faoliyat yuritishi va qo'shimcha ishchi o'rinlarini yaratish uchun bank kreditlarining o'rni katta. Biroq yangi kreditlar ajratilishi va foiz stavkalarining pasayishi o'z-o'zidan oldingi kreditlarning o'z vaqtida so'ndirilishi bilan bog'liq ekanligi muammoli kreditlarning undirilishini yanada takomillashtirish, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalaridan keng foydalangan holda takomillashtirish yo'llarini topishni taqozo etadi.

Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2024-yil 1-yanvar holatiga viloyatimizda tijorat banklarining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 488 milliard so'mlik muammoli kreditlari bartaraf etilib, 728 milliard so'm yoki jami kredit qo'yilmalaridagi ulushi 0,5 bandga kamayib, 2,8 foizga (2023-yil 1-yanvar holatiga 3,3 foizni tashkil etgan) tushishiga erishildi.

Bundan tashqari, xorijiy banklarning O'zbekistondagi tijorat banklariga investitsiyalar kiritilishida muammoli kreditlarning ulushiga e'tibor qaratilishi, ushbu yo'nalishning salbiy tarafga o'zgarishi, investitsiyalar oqimi salmog'ining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tijorat banklaridagi muammoli kreditlarni undirish hamda sifatini oshirishga qaratilgan takliflarni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jumladan, bugungi kunda muammoli kreditlarni undirish uchun tijorat banklari tomonidan Savdo-sanoat palatasi orqali sudga da'vo arizalari kiritiladi. Sudning hal qiluv qarori chiqib, qarz oluvchiga berilgan qo'shimcha muddatlardan so'ng ijro hujjatlari Majburiy ijro byurosiga o'tkaziladi hamda garov mulki



"E-auksion" savdolariga chiqarish orqali sotiladi. Garov mulklarining realizatsiya qilinishi uzoq muddat talab etib, tijorat banklarida muammoli kreditlarning saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Shu bois Prezidentimizning 2023-yil 29-apreldagi "Kreditlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, undiruv garovga qo'yilgan mol-mulikka suddan

tashqari tartibda qaratilganda, garov obyektini "E-auksion" elektron savdo platformasida auksionga kreditorning va (yoki) qarzdorning buyurtmasi asosida qo'yish amaliyotini keng joriy etish zarur. Bu esa o'z navbatida muammoli kreditlarning undiruv muddatini qisqartiribgina qolmay, qarzdorlarni sudga to'lanishi lozim bo'lgan davlat bojarlaridan ozod etadi. Sud hujjatlari undiruv bo'yicha to'lanadigan to'lovlar (MIBga ijro yig'imi sifatida to'lanadigan to'lovlarga zarurat qolmaydi), tadbirkorlarning yuridik xizmatlar va sudlar bilan bog'liq xarajatlari hamda sarsongarchiliklarining oldi olinadi hamda kelgusida kreditlash imkoniyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar tajribasida kollektorlik xizmati ham jadal rivojlanib bormog'da. Kollektorlik xizmati - qarz oluvchilardan banklar va mikromoliya tashkilotlari oldidagi qarzlarni undiruvchilar bo'lib, ular ma'lum ulush evaziga (qarzdorlikdan foiz) qonunchilik asosida undiruv bilan shug'ullanadi. Misol uchun, AQShda kollektorlik xizmatlari (Debt collector)dan 2021-yil 30-noyabrda qonuniy kuchga kirgan bo'lib, amaliyotda ijro natijalarini berimog'da.

Mazkur yo'nalishni mamlakatimiz tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlarida joriy etish kreditlar qaytimini jadallashtiradi. Muammoli kreditlar undiruvini to'liq qamrab olish imkonini beradi hamda qaytgan resurslarni qayta yo'naltirish an'anasini tezlashtirishga xizmat qiladi.

**Adham QARSHIYEV, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi xodimi.**

**Prezidentimizning "Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan joriy yilning 1-martidan e'tiboran:**

# 22 ta litsenziya va ruxsatnoma bekor qilinadi

- 7 turdagi ruxsat beruvchi hujjat to'liq bekor qilindi (masalan, bojxona tashuvchilari reyestriga kirishda yuklarni tashish uchun ruxsatnoma talab qilinmaydi);

- 12 turdagi ruxsat beruvchi hujjat birlashtirish yo'li bilan bekor qilinadi (xususan, eksport nazorati obyektlarini olib chiqish uchun ruxsatnoma hamda maxsus tovarlar eksporti va importi uchun litsenziya birlashtirilmoqda);

- 3 ta litsenziya va ruxsatnoma xabarnoma tartibiga o'tkaziladi (masalan, turagentlik faoliyati bilan litsenziyasiz shug'ullanish mumkin bo'ladi).

Farmonda belgilangan yana bir muhim tartib, ayrim sohalarida litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillari soddalashtirilgan "Biznesga litsenziyasiz kirish" maxsus rejimi joriy etildi.

Bundan tashqari, hujjat bilan 2024-yilda normalativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish rejasi tasdiqlandi.

**Rustam NORQULOV, Samarqand shahar adliya bo'limi DXM bosh mutaxassisi.**



**Tovar ayriboshlashning uzoq va murakkab jarayoni va chakana savdo rivojlanishi tovar, pul hamda qimmatbaho buyum (yombi) bosqichidan o'tib, tanga paydo bo'lishiga olib kelgan. Dastlabki tangalar o'ng yoki tersida o'lchovi, og'irligi to'g'ri ekanligini tasdiqlovchi rasm-muhri bilan qimmatbaho buyumdan farq qilgan.**

Qadimgi yunon tarixchisi Gerodot lidialiklar miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda tanga pulni zarb qilishni kashf qilgani haqida ma'lumot qoldirgan. Bu tangalar oltin va kumushning tabiiy qotishmasidan, keyinroq sof kumushdan zarb qilingan.

Vatanimiz ilk tanga paydo bo'lgan o'lkalarga kirmaydi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda ahamoniy fors hukmdorlari O'rta Osiyoni bosib olgach, ularning

## Bizda pul qachon paydo bo'lgan?

oltin-"darik", kumush-"siki" tangalari muomalada bo'lgan. Yunon-Baqtriya davlati davrida "medaler"-metali tanga zarb qilish va "medalon"-biror bir ulug' zot yoki muhim sana munosabati bilan tanga zarb qilish, "monogramma"-lar-tanga zarb etgan usta yoki hukmdor ismining bosh harflari yozilgan tangalar zarb qilish san'ati paydo bo'lgan. Keyinchalik "Chekan"-tanga-chaqqa zarb qiladigan shtamp, qoliplar tayyorlana boshlandi. Yunon-Baqtriya davlati qulagach, ularning tangalariga taqild qilib tanga zarb qilingan. Bu tangalar aslini olganda, Yunon-Baqtriya tangalari nusxasi bo'lib, asl tangadan ma'dan tarkibi, vazni, tasvirining sifati, pala-partish yozuvlari bilan farq qilgan. Milodning I asrida Sug'dda bir tomonida hukmdor tasviri, ikkinchi tomonida o'q-yoy tutgan kamanchi rasmi aks ettirilgan sug'd yozuvidagi kumush tangalar zarb etilgan.

VII-VIII asrlardan boshlab tovar-pul munosabatlarida hunarmandchilik buyumlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari va chorva hayvonlarining qat'iy belgilangan narxi joriy qilingan. Masalan, ayol kiyimining narxi-15 draxma, bir ko'ylaklik ipak gazlama narxi 28 draxmadan 100 draxmagacha bo'lgan, dubulg'aning narxi 2 draxma, otning narxi 200, sigirning narxi 6,5-11, qog'ozning narxi 8 draxma. "Draxm" so'zi qadimiy o'lchov birligi sifatida sharqda "misqol" nomi bilan ma'lum bo'lgan og'irlik birligi 4-4,5 gramm kumushga teng bo'lgan.

Arablar istilosigacha bo'lgan davrda Sug'd, Choch, Farg'ona, Ustrushona, Toxariston kabi mustaqil mulklarning hukmdorlari, ba'zilarida hukmdor yonida malikalari tasviri bilan zarb qilingan tangalar amal qilgan.

O'lkamizda shaybony hukmdorlari Muhammad Shaybonyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II davrida pul islohotlari o'tkazil-

gan. Abdullaxon II davrida sof oltin tangalar zarb qilinib, tarkibiga boshqa metallar aralashtirilmasligi qat'iy nazorat qilingan.

Ashtarxoniyalar (1601-1756-yillar) davrida tanga pul munosabatlari inqirozga yuz tutgan. Mang'it amirlaridan amir Shohmurod pul islohoti o'tkazib, vaziyatni o'nglashga erishgan. Amir Shohmurod 1784-1785-yillarda 3 xil - "ashrafiy"- oltin tanga, "tanga"- kumush, "fals"- mis tangalar zarb qildirgan. Xalq kumush tangalarni "oq pul", mis chaqalarni "qora pul" deb atagan. 1 ta tilla tanga 22 ta kumush tangaga, 1 kumush tanga 44-64 ta mis tangaga teng bo'lib, kumushga nisbati o'zgarib turgan. 1 ta oltin tanga vazni 4-4,5 gramm, 1 mis tanga 2-3,2-5 gramga teng bo'lgan.

XVII asrdan boshlab Rossiyada qog'oz pullar paydo bo'lgan va XIX asr ikkinchi yarmidan O'rta Osiyoga ham kirib kelgan. Rossiya imperiyasi qulagach, sovet davri

rubli 1924-yildan qog'oz pullar bilan birga qog'oz kopeyeklar ham II jahon urushi davrigacha muomalada bo'lgan. 1961-yili yangi sovet rubli joriy qilinib, shu yilning yanvaridan aprelgacha o'nga bir nisbatda almashtirilgan va 1991-yilgacha ishlatilgan.

O'zbekiston mustaqil davlatga aylangach, 1993-yilgacha Rossiya rubli, 1993-yil noyabrdan 1994-yil iyul oyigacha 1992-yilda tayyorlab qo'yilgan so'm kuponlarga o'tilgan. 1994-yil 1-iyuldan o'zbek valyutasi so'm joriy etildi. O'shanda so'm 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so'mlik banknotlardan iborat edi. 1997-yil 200, 2000-yil 1-iyundan 500, 2001-yildan 1000, 2013-yil 5000, 2017-yil 10-martdan 10 000, 2017-yil 23-avgustdan 50 000, 2019-yil 25-fevraldan 100 000, 2022-yil 15-iyuldan 200 000 so'mlik banknotlar joriy etilgan.

**Nuriddin XO'JANOV,**  
**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi.**  
**Husniddin XUDOYQULOV,**  
**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

# OGOH BO'LING, MAGISTRAL GAZ QUVURLARI!

**Magistral gaz quvurlarining muhofaza zonasida xavfsizlik choralari ni ko'rish g'oyatda muhim. Viloyatimizning Narpay, Kattaqo'rg'on, Nurobod, Past Darg'om, Samarqand, Oqdaryo, Toyloq, Urgut, Jomboy, Bulung'ur tumanlari hamda Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari hududi bo'ylab aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiiy gaz bilan ta'minlovchi, yuqori bosimga ega magistral gaz quvurlari yotqizilganligini hisobga olsak, masala kundek ravshan. Shu sababli hamyurtlarimizga murojaat qilmoqdamiz.**

Ekspluatatsiyaning normal sharoitini ta'minlash va quvurlar buzilishiga (ularning har qanday o'tkazilishidan qat'i nazar) yo'l qo'ymaslik uchun "Magistral gaz quvurlari himoya qoidasi"ga va O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 69-moddasiga asosan, muhofaza hududi o'rnatilgan.

Magistral gaz quvurlari tarkibiga gaz quvurlari, gaz taqsimlash shoxobchalari, kran tugunlari, elektr kimyoviy himoyalash uskunalarini (EHZ), yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari (LEP), gaz quvurlari trassasi bo'ylab yotqizilgan yo'llar, gaz quvurlarini bildiruvchi va tanituvchi belgilar kiradi.

Quvurlarning muhofaza zonasiga kiruvchi maydonlar yerdan foydalanuvchilardan olib qo'yilmaydi, faqat mazkur maydonda magistral gaz quvurlarini muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya etgan holda qishloq xo'jaligi yoki boshqa turdagi ishlarni olib borish mumkin.

**Muhofaza zonasida quvurlarning me'yorida ishlashiga halqat beruvchi yoki ularga shikast yetkazuvchi har qanday turdagi ishlarni bajarish taqiqlanadi. Xususan:**



- har qanday qurilish ishlarini olib borish, doimiy va vaqtinchalik imoratlar qurish;

- har xil turdagi daraxt va butalarni ekish, yem-xashak, ozuqa, o'g'it va materiallarni to'plash, pichan g'amlash, chorva mollarini saqlash va suv ichadigan hovuzlar qurish, baliq yetishtirish uchun uchastkalar ajratish va baliq hamda boshqa suvda yashovchi va suzuvchi hayvonlarni parvarishlash;

- quvur yo'nalishi ustidan o'tish va kesib o'tish yo'llarini qurish, traktor va boshqa og'ir mexanizmlar uchun turarjoylar barpo etish, jamoat bog'lari va polizlarni tashkillashtirish;

- turli xil qurilish-montaj, portlatish va burg'ulash ishlarini amalga oshirish, tuproqni surish va tekislash;

- melioratsiya ishlarini bajarish, sug'orish va suv qochirish kanallarini qurish, chuqurlashtirish;

- nazorat-o'lchov quduqlari, nazorat-o'lchov punktlari, bildiruvchi va ogohlantiruvchi belgilarni buzish, joylarini o'zgartirish;

- kabel aloqasi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytiruvchi punktlarning qopqoqlarini, kimyoviy himoyalash stansiyasi va boshqa uskunalar atrofida o'rnatilgan sim to'siqlarni ochish va ichiga kirish, kranlar, zuffinlar va jo'mraklarni ochish yoki yopish, aloqa vositalari va energiya ta'minoti uskunalarini o'chirish va yoqish;

- belgilangan hududda turli xil chiqindilarni yig'ish, yerga ishqorlar, tuzlar, kislota eritmalarini to'kish;

- har xil maqsadlarda olov yoqish, quruq xashak va somonlarni yoqish;

- himoya hududlarida sun'iy havzalar va sholi ekinlari ekish.

Magistral gaz quvurlarini himoya qilish qoidalarining buzilishida aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra javobgarlikka tortiladi. Magistral gaz quvurlari bo'ylab xavfsizlik yer uchastkasi ko'rinishida, quvur o'qining har ikki tomoniga 50 metrgacha masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan bo'ladi.



Qishloq xo'jaligiga taalluqli yerlardan himoya maydoni magistral gaz quvurlarining o'qidan har ikki tomoniga 25 metr masofada o'tadigan shartli chiziqlar bilan chegaralanadi.

Gazdan kondensatni ajratish va saqlash uchun sig'imlar atrofida, neft, kondensat va siqilgan uglevododrodlarni avariya holatida chiqarish uchun yer omborida ko'rsatilgan obyektlar maydoni chegarasida har tomoniga 50 metrdan tutashgan chiziq bilan chegaralangan uchastka ko'rinishida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida "Qurilish me'yori va qoidalarini" (QMQ 2.05.06-97) me'yoriy hujjat asosida magistral gaz tarmoqlari atrofida quvurlar diametriga mos holda muhofaza hududlari belgilangan.

**Unga ko'ra, diametri:**  
- 1200 mm.dan 1400 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi

quvur o'qidan har ikki tarafga - 350 metr;  
- 1000 mm.dan 1200 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 300 metr;  
- 800 mm.dan 1000 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 250 metr;  
- 600 mm.dan 800 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 200 metr;  
- 300 mm.dan 600 mm.gacha bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 150 metr;  
- 300 mm. va undan kichik bo'lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 100 metr va gaz taqsimlash shoxobchalari har tomondan himoya hududi (muhofaza hududida har qanday ishlarni olib borish taqiqlangan) 100 metr.

Shu bilan birgalikda aholi e'tiborini quyidagilarga qaratmoqchimiz. Davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga ko'ra, aholi tomonidan tegishli mahalliy hokimiyatlar ruxsatisiz avvaldan qurilib, hozirda aholi istiqomat qilab kelayotgan ayrim uy-joylar ham tegishli hujjatlar orqali egalari ga muk sifatida rasmiylashtirib berilmoqda. Lekin magistral gaz quvurlarining xavfli hududida, boshqacha aytganda, "Qizil hudud" ichida qurilgan noqonuniy imoratlar uchun bu yengilliklar tatbiq etilmaydi va bunday imoratlar buzilishi kerak bo'ladi.

Agarda hamyurtlarimizning yer uchastkasi yoki dehqonchilik qilayotgan maydoni magistral gaz quvurlari yaqinida joylashgan bo'lsa, biror turdagi qurilish ishlarini boshlashdan oldin shu gaz quvuriga xizmat ko'rsatuvchi boshqarmaga murojaat qilib, ish ko'rish tavsiya etiladi. Shunday holda fuqarolar o'zboshimchalik bilan qurilgan noqonuniy imoratni buzilishi bilan bog'liq ortiqcha asabuzarlik va keraksiz moddiy chiqimlardan xoli bo'lishadi.

Magistral gaz quvurlari qoidalarini buzilishiga sabab bo'lgan mansabdor shaxslar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi "Mamuriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning "Magistral quvurlari himoyasi qoidalarini buzish haqida"gi 150-moddasiga asosan ma'muriy javobgarlikka tortiladilar.

**Tashkilot manzili:**  
**Samarqand tumani Gulobod maskani,**  
**Gazchilar qo'rg'oni.**  
**Telefonlar: +99866-612-56-01,**  
**612-53-04, +99899-022-77-12.**

**O'ktamxon TUROPOV,**  
**Samarqand magistral gaz quvurlari boshqarmasi boshlig'i.**  
**Iskandar SHUKUROV,**  
**Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi Samarqand hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi.**

### IJARAGA BERILADI

Ishitxon tumani "Mehnat-rohat texnikalari" MMTP hududidagi "Ishitxon Gold Grapes" fermer xo'jaligiga (STIR: 305717559, asosiy faoliyat turi uzumchilik-bog'dorchilik) tegishli 554-konturdagi 10,14 gektar sug'orilib haydaladigan yer maydoni uzumchilik yo'nalishida jismoniy va yuridik shaxslarga shartnoma asosida ikkilamchi ijaraga beriladi.

**Manzil: Ishitxon tumani Damarik mahallasi, Damarik qishlog'i.**  
**Murojaat uchun telefon:**  
**+99894-762-02-84.**

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Usmanova Gulchexra Samatovnaga (2022-yil 15-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Shadmanov Baxrilla Sattarovichga (2023-yil 2-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Yusufov Farxodga (2023-yil 3-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirova notarial

idorasida marhum Toshmatov Mustafaga (2019-yil 4-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Ziyadullaeva Olga Semyonovnaga (2018-yil 18-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Xamrakulova Xursheda Ergashevna (2002-yil 18-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi

ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Djamalov Urak Djamalovichga (2021-yil 30-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Ruziboyev Abdusayit Mamatovichga (2023-yil 11-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz

Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Yakubov Amingaga (1983-yil 27-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Sharipov Xusenga (1993-yil 11-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri**

**Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Karimova Narsuluv Abdibakiyevnaga (2021-yil 25-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.**

**BEKOR QILINADI**  
Fuqaro Ismatov Ulmas Xaitovichga qarashli Samarqand tumani "Tolibarzuipoyon" MFY, Nayman qishlog'ida joylashgan 49-uy-joyning kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi "RASUL GRAND STROY SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 303353570) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



## Mulohaza uchun mavzu

Maktablardagi bugungi shart-sharoit bilan biz o'qigan davrdagi-sining o'rtasidagi farq juda katta. Bu o'qituvchining dars o'tish uslubiga, o'quvchining o'zlashtirish darajasiga ham sezilarli ta'sir o'tkazgan. Aslida bu tabiiy jarayon. Ammo maktabni maktab qiladigan omil, shubhasiz, muallimdir. Bugungi o'qituvchilar zamonaviy ta'lim berishda yuksak natijalarni qayd etyapti. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

## Ustozlar ibratini - tarbiya maktabi

Biz, yoshi ulug'lar ta'lim sohasini o'ylaganimizda, ko'proq o'zimizning o'quvchilik davrimizning qaysidir jihatlari bugungi ta'lim darajasidan ustunroq qo'yishga harakat qilamiz. Ko'p o'ylayman, ushbu o'y-fikrlarning ana shu ustunligi nimada? Bugungi davr pedagoglari faoliyati, o'quvchilarni intilishlari yu xatti-harakatlari haqiqatda ham avvalgilardan sustroqmi?

To'g'irisi, savolni qo'yaman, ammo javobida qiynalman. Tahsil olgan maktabdagi ustoz-muallimlarni ko'z oldimga keltiraman, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi haqida o'ylayman. Keyin bir fikrga kelaman. Hammasi davrga yarasha, yaratilgan sharoitlar bilan bog'liq. Ilgari ham yoshlarning zamoniga yarasha ilm egallashi uchun imkoniyatlar bo'lgan, hozir ham bor.

Birinchisi qadam qo'ygan kunim sira yodimdan chiqmaydi. Qiy-chuv qilayotgan 20-30 chog'li bolani muallimlar bir sinfga olib kirishdi. Bir mehribon inson barchamizni partalarga o'tirishga taklif qildi. Salomlashishni o'rgatdi. O'zini muallim sifatida tanishtirdi. Keyin har birimiz bilan tanishib chiqdi.

Bu inson birinchi o'qituvchimiz - Dodaroy Bobokalonova edi. Muallima sochlarini silliq taragan, kiyimlari bejirim, tabassumi o'ziga yarashli edi. Birinchi kuniyoq muallimimizdagi ushbu ibratli jihatlarni uning kiyinishidan, muomalasidan, mehribonligidan sezganday bo'ldik. Unga kelganida ota-onamga bu haqda gapirib berdim.

- Bolam, o'qituvchi shunday bo'ladi. O'quvchi uning yurish-turishidan, kiyinishidan, o'zini tutishidan, muomalasidan ibrat olishi kerak. O'quvchi o'qituvchining aytganini albatta qilishi, topshiriqlarini so'zsiz bajarishi lozim, - dedi otam. - Shuni bilginki, muallimning judayam yaxshi odami. Sen unga yaqinroq bo'l, aslo o'zingni uzoq tutma. Biror narsani bilmasang, tortinmay so'ra. Ana shunda yaxshi o'quvchi bo'lasan.

Otam aytganday yaxshi o'quvchi bo'lishga intildim. Bildimki, o'qituvchimiz judayam mehribon, o'qishni, yozishni o'rgatishdan sirayam erinmaydi. Sinfdan o'zimizni qanday tutishimiz lozimligini, odob-axloqni erinmay o'rgatadi. Qo'limizdan tutgan holda ruchkani ushlab, harflarni, sonlarni yozdiradi.

Shularni o'ylar ekanam, haqiqiy ustoz shunday bo'ladi, men va sinfdoshlarim hayotda nimagaki erishgan bo'lsak, ularda ustozimizning munosib o'rni bor, degan fikrlarni xayolimdan o'tkazaman.

Ustozimiz sinfdan shunday muhit yaratdiki, har bir o'g'il-qiz o'zini erkin tutadigan, savollariga bemalol javob oladigan bo'ldi. Kun sayin o'qituvchiga yaqinlashib boraverdik. Yoshimiz ham, tasavvurlarimiz ham hali go'daklaracha bo'lsa-da, ustozdan hayiqmadik, hurmat qildik. Buning birdan bir sababi ustozimizning mehribonligida, bizga nisbatan mehrining o'zgarishida edi.

Bola juda sezgir bo'ladi, deyishadi. Haqiqatda ham shunday. Biz endigina birinchi sinfga kelganlar ustozimizning har birimizni dildan yaxshi ko'rishini, bizlarning odobli va bilimlari bo'lishimizni xohlashini sezardik. Shu sababdan bo'lsa kerak, o'qituvchimizga bo'lgan mehrimiz oshib, kun sayin unga bog'lanib qoldik.

Ko'pincha o'sha davrni hozirgi ta'lim tizimi bilan taqqoslaganimda birinchi muallimimizdagi mehri, o'quvchiga bo'lgan munosabatini eslayman. Ularni bugungi o'qituvchilardan ham izlayman. O'tgan asr bilan yangi asr ta'limi o'rtasidagi farqning kattaligini eslayman. Ularimizning katta talablariga bo'lgan ehtiyojimiz, maktablardagi bugungi sharoit, imkoniyatlar, darslarning zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilayotgani bunga yaqqol misol.

Universitetda o'qigan davrlarni, tanlagan soham bo'yicha olgan bilimlarimni ham ustozlar bergan o'g'ituvchilarning mehribonligisiz tasavvur etolmayman. Ularning har biri sehirli olam edi. Vohid Abdullayev, Boturxon Valixojayev, Nuriddin Shukurov, Hamdam Berdiyev, Xudoyberdi Doniyorov, Tohir Xo'jayev, Nosir Abdurahmonov, Isroil Mirzayev, Bekmurod Yo'ldoshev singari mashhur olimlar bor ediki, biz, talabalar har kuni ulardan faqat ilm-fan sirlarinigina emas, balki qalblaridagi chin insoniy hislatlarini ham o'rganishga, ulardan ibrat olishga harakat qilardik.

Xo'jaqul MUHAMMADIYEV.

## Maktabda xorijliklar ham ishlayapti



Bugun nafaqat oliy ta'lim muassasalariga, balki maktablarga ham xorijdan o'qituvchilar jalb etilyapti. Masalan, viloyatimiz maktablari-ga joriy yilda "Zo'r ("Klass")" loyihasi bo'yicha 16 nafar rossiyalik, 3 nafar fransiyalik, 1 nafar hindistonlik, jami 20 nafar pedagog kelgan.

Xorijdan jalb etilgan o'qituvchilar maktablarda o'quvchilarga to'garak mashg'ulotlari o'tadi. Chet tili darslari maktab o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi, darslarni mustahkamlash uchun xorijiy o'qituvchilar o'quvchilar bilan mashg'ulotlar olib boradi. Jumladan, Toyloq tumanidagi 21-maktabga Hindistondan kelgan Bashpa Sunitha o'zbek va rus sinflarga ingliz tilidan to'garak mashg'ulotlari o'tyapti. Rossiyadan jalb etilgan o'qituvchilar esa tuman maktablarida o'zbek sinflarga rus tili va adabiyoti fanidan to'garak o'tmoqda. Fransiyalik o'qituvchilar Samarqand shahridagi fransuz tili chuqur o'rgatiladigan 43-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida ishlaymoqda.

Chet eldan jalb etilgan o'qituvchilarga turarjoy bepul, ya'ni mahalliy hokimliklar tomonidan ularning ijara puli to'lab berilyapti.

2024-2025-o'quv yilida viloyat maktablariga Germaniya, Fransiya va Hindistondan yana 207 nafar mutaxassislar jalb qilish rejalashtirilgan.

Erali G'ANIYEV,  
viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

Respublikamizdagi barcha maktablarga yangi avlod darsliklari berildi. Bu o'quv yilida boshlang'ich sinflar yangi darsliklar asosida o'qitilmoqda. Yangi avlod darsliklari haqida ijtimoiy tarmoqlarda ota-onalar tomonidan noroziliklar bildirildi. Kimlardir darslikdan xato topdi, kimdir juda murakkabligini aytdi va hokazo. Biz ayni shu masalada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fikrlari bilan qiziqdik.

**Shahzoda ODILOVA,**  
Kattaqo'rg'on tumanidagi 9-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

- 4-sinflarga dars beryapman. O'qish savodxonligi va ona tili darsligining alohida o'tilayotgani yaxshi bo'ldi. Ikkala darslik ham bolalar tushunadigan tarzda, sodda, oson yozilgan. Ona tilida endi qoidalar berilmaydi deyishgandi, aksincha ot, sifat, son, so'z turkumlari haqida alohida mavzular berilgan. Ushbu darsliklarni bolalar qiynalmasdan o'zlashtiryapti, faqat matematika fani biroz murakkab tuzilgan. Shuningdek, matematika darsligidagi mashqlarni dars davomida ishlab ulgurmayapman. Qo'shimcha darsdan keyin to'garak o'tay desam, maktabda sharoit yo'q, sinflar yetishmaydi. Shuning uchun qolib ketayotgan mashqlarni bolalar bilan kechqurun telegramda chat orqali birgalikda yechyapman. Buni menga hech kim aytgani yoki buning uchun qo'shimcha ish haqi to'layotgani yo'q. Vijdonim qiynalganidan shunday qilyapman. Darsda matematikadan 10-11 ta mashq ishlasak, qolganini chat orqali yechyapman, ya'ni kitobda berilgan mashqlarning barchasini ishlashga harakat qilyapman.

Tabiiy fan darsligi ham qiyn emas, bolalar yaxshi o'zlashtiryapti. Ingliz va rus tilidan boshqa o'qituvchi dars o'tadi. Rus tili fani o'qituvchisi darslik murakkab ekanini aytmog'ida.

Darslikdagi xatolarga kelsak, ko'proq matematika fanida qo'shish (+) o'rniga ayirish (-) berilgan holatlarga duch kelyapman.

Yangi avlod darsliklari haqiqatda murakkab tuzilgan. Bolalar yangi avlod darsliklariga tayyor bo'lishi uchun ularga bog'chadan fikrlashga o'rgatadigan mashqlar o'tilishi kerak. To'g'iri, bu darslik xorijiy tajribalar asosida tayyorlangan. Ammo chet elliklar bolaga uch yoshidan, ya'ni bog'chadan ta'lim-tarbiya berishni boshlaydi. Qishloq sharoitida hamma bola ham bog'chaga bormaydi. Bog'chaga bormagan bola

## Darsliklardagi mavzularni bolalar qanday qabul qilyapti?

1-sinfdan bunday darslarni o'zlashtirib ketishi qiyn.

Shuningdek, ota-onalar ham kechqurun bolasi bilan shug'ullanishi, birgalikda dars tayyorlashi lozim. Farzandining darslarini tekshiradigan ota-onalarning bolasi darsga tayyor bo'lib keladi. Hatto ba'zilar o'tiladigan darsni oldindan o'qib keladi. Ota-onasi serial ko'rish bilan mashg'ul bolalar esa chala-chulpa dars qiladi.

Bu yilgi darsliklar har chorak uchun alohida chiqarilgan. Kitoblar choraklik boshlanganidan bir hafta o'tib, kechikib kelyapti. Bu ham bolalarga qiynchilik tug'diryapti. To darslik yetib kelguniga qadar biz kitobning elektron nusxasidan foydalanishiga majbur bo'lyapmiz.

**Gulchehra ERGASHEVA,**  
Toyloq tumanidagi 22-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

- Birinchi sinflarga dars beraman. O'quvchilarning deyarli barchasi bog'chaga borgan, faqat ikki nafari bormagan. Ular ham darslarni yaxshi o'zlashtiryapti. Boshida darslarda qiynalmadim, darsliklar juda yaxshi, oson tuzilgan ekan. Ammo uchinchi choraklikning darsliklari kelgach, matematika fani biroz murakkab tuzilganiga guvoh bo'ldim. Endi bolalarga qo'shimcha darslar o'tyapman, darslarni o'zlashtira olmayotgan bolalar bilan darsdan keyin alohida shug'ullanyapman. Yangi avlod darsligidagi mavzularni bolalarga to'liq yetkazib berishim uchun o'z ustimda ishlapyapman. Ba'zi bolalar matematikadan uyga vazifani ota-onasi ko'magisiz mustaqil ishlay olmayapti. Ya'ni uchinchi sinfdan o'qiydigan jiyanimning matematikasini onasi yechib berayotganini ko'rib, tanbeh berdim. Qarindoshim "Nima qilay, bolamning o'zi matematikani ishlay olmasa", dedi. Eski darsliklarning afzalligi shunda ediki, undagi mashq va masalalarni bolalarning o'zi mustaqil ishlay olardi.

Darsliklarda ba'zi xatolarga ham duch kelyapman. Masalan, "Alifbo" kitobida "L" harfi berilmagan. Shunday bo'lsa-da, bu harfni o'tyapmiz. Ona tili darsligida topishmoqning javobi tarvuz bo'lib, unga oltila katak qo'yilishi kerak. Kitobda esa beshta katak berilgan.



**Dilfuza ISOQOVA,**  
Samarqand shahridagi 16-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

- Ikki yil o'qish savodxonligi va ona tili fani boshlang'ich sinflarga bitta qilib o'tildi. Bu yil ushbu fanlar alohida o'qitilyapti va bularga alohida darsliklar chop etilgan. Mana bu o'qituvchilar uchun ham, o'quvchilar uchun ham juda qulay bo'ldi. O'qish savodxonligida mantlar oson tuzilgan, bir-biridan qiziq savollar, boshqotirmalar berilgani bizga ma'qul. Ikkinchi va uchinchi sinflarning o'tgan yilgi ona tili fanida qoidalar yo'q edi. Bu yilgi yangi avlod darsliklarida qoidalar berilgan. Aslida qoidasiz ona tilini tushuntirish qiyn. Mana shu muammoning oldi olingani juda yaxshi bo'libdi. Ammo matematika fani biroz murakkab.

Bu yil to'rtinchi sinflarga dars beryapman. O'quv yili boshida o'quvchilar matematika yechishga qiynaldi. Sababi o'tgan yilgi matematika darsligi juda oson edi. Matematika darsligi va masalalar o'quvchini ijodiy fikrlashga o'rgatadi, shuni bilan boshida bizga qiyndek tuyuldi. Endi esa hammasi iziga tushdi. Aslida yangi avlod darsliklari birinchi sinfdan o'qitilib borilsa, to'rtinchi sinfdan o'quvchilar qiynalmaydi.

Tabiiy fanlar darsligi ham o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi, undagi mavzular bolalar uchun qiziqarli yoritilgan.

\*\*\*

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, yangi avlod darsliklaridagi xatolar tuzatilib, vaqtda maktablarga yetkazilsa, bog'cha yoshi-danoq bolalarga ijodiy fikrlash o'rgatilsa, boshqa muammoga o'rin qolmaydi.

Xurshida ERNAZAROVA tayyorladi.

## Milliy sertifikat uchun natijalar Rash modeli asosida hisoblanadi

**Vazirlar Mahkamasining 2020-yilning 12-oktabrida "Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga o'zgartirish kiritildi.**

Unga ko'ra, umumta'lim fanlaridan milliy sertifikat imtihonlariga talabgorlarni ro'yxatga olish Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz sayti) orqali amalga oshiriladi.

Umumta'lim fanlarini bilish darajasini aniqlash bo'yicha A+, A, B+, B, S+, S, darajali sertifikatlar beriladi.

Test natijalari xalqaro metodika - Rash modeli asosida hisoblanadi.

Unga ko'ra:  
70 ball dan yuqori ball olgan talabgorga A+ daraja;  
65-69,9 ball olgan talabgorga A daraja;  
60-64,9 ball olgan talabgorga B+ daraja;  
55-59,9 ball olgan talabgorga B daraja;  
50-54,9 ball olgan talabgorga S+ daraja;  
46-49,9 ball olgan talabgorga S darajali sertifikat beriladi.

Bunda A, A+ darajali sertifikat olgan abituriyentlarga oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga

o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlarida ushbu fandan belgilangan maksimal ball beriladi.

S, S+, B, B+ darajali sertifikat olgan abituriyentlarga mos ravishda sertifikatdagi umumiy ballga nisbatan foiz asosida oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlarida ushbu fandan belgilangan maksimal ballga nisbatan tabaqalashtirilgan (proporsional) ball beriladi.

Milliy sertifikat imtihonida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish my.gov.uz sayti orqali amalga oshirilgani sababli talabgorlardan belgilangan to'lovning 90 foizi undiriladi.

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslarga, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga 50 foiz chegirma qo'llanadi.

Bundan tashqari, milliy sertifikatga ega bo'lgan abituriyentga tegishli majburiy fanlar bo'yicha belgilangan eng yuqori ball beriladi.

Sertifikat berish uchun talabgorlardan ariza berilgan kundagi bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida to'lov undiriladi. Sertifikat 3 yil muddatga beriladi.

**Samariddin SUYUNOV,**  
Bilim va malakalarni baholash agentligi viloyat bo'limi mutaxassisi.

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 657 nusxada chop etildi. Buyurtma 117. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonaning manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**Y.MARQAYEV.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda